# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№10

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



*Elektron nashr, 427 sahifa.*
*2025-yil, 20-oktyabr,*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Shakarov Zafar Gʻafforovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻz FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Boʻtaboyev Mahammadjon Toʻychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulugʻbek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon oʻgʻli,** Texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Joʻraeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI ........ 12
**Quliyev Begimqul Melikovich**

EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ........ 18
**Bahtiyor Ismoilov Ulug'bek o'g'li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna**

O'ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI ........ 25
**Davletova Nilufar Tulanovna**

EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ........ 30
**Qodirov Farrux Ergash o'g'li**

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI ........ 37
**Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna**

MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO'LLARI ........ 46
**Sultanov Dilshod Normamatovich**

IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 50
**Akhmadaliyeva Nikholakhon**

O'QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA'LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI ........ 62
**Yuldashev Iskandar Bahromovich**

YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI ........ 68
**Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li**

RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O'RNI........ 74
**Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich**

DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI........ 80
**O. Nurmuradov**

ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA'LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI ........ 85
**Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o'g'li**

XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI ........ 90
**Xuramov Zafar Rajabaliyevich**

KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI ........ 95
**Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich**

GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG'URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI........ 99
**Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li**

DORIVOR O‘SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI ........ 103
**Usmonov Mirg‘ulom Xoshim o‘g‘li**

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHGA ERISHISHDA SUN’IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO‘LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI ........ 109
**Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich**

НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА ........ 115
**Ягудин Дмитрий Рустамович**

RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI ........ 123
**Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich**

SOLIQ TO‘LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ–ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH ........ 129
**Abduraimova Nigora Abdugapparovna**

DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA’LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO‘SHGAN HISSASI ........ 134
**Raxmatxo‘jayev Axrorxo‘ja Akmal o‘g‘li**

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ........ 140
**Мансурова Сайёра Бахтияровна**

BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 148
**Xolikova Oydin Olimjonovna**

PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI ........ 153
**Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich**

GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN’S OPPORTUNITIES ........ 158
**Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi**

TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI ........ 166
**Suyunov Asror Baxtiyorovich**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOYILLARI ........ 171
**Z.Teshayev**

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI ........ 176
**Ismailov Allayor Rashidovich**

MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQARISH XARJATLARINI OG‘ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH ........ 183
**Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o‘g‘li**

ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА ........ 186
**Исмагулова Гульмира Нуралиевна**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI ........ 193
**Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li**

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI ........ 198
**Xudoyorov Lochinbek Bahromovich**

TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA ........ 203
**Abduraxmonov Akmal Nurmamat o‘g‘li**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI ........ 207
**Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna**

TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 212
**Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi**

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI ........ 220
**Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li**

O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 226
**Norova Nozima Nabiyevna**

UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI ........ 232
**Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li**

KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ........ 236
**Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich**

XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ........ 242
**Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li**

TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR ........ 247
**Dusanov Salim Mamarasulovich**

O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ........ 254
**Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li**

DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH ........ 262
**Ostonokulov Azamat Abdukarimovich**

РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН ........ 273
**Хошимова Камилла Навфал қизи**

A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY ........ 285
**Ibrayim Maxkamov**

RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI ........ 291
**Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna**

QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI ........ 297
**Hamroyev G'ayratjon Sultonovich**

TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH ........ 301
**Shaymanov To'lqin Mahmayusupovich**

ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ........ 306
**Элбаева Мукаддас Рашидовна**

СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ........ 311
**Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шоҳруҳ Шарофович, Баҳрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент**

ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ........ 319
**Базарова Гулнора Гуламовна**

O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ................................ 323
**Pulatova Moxira Baxtiyorovna**

QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT ................................ 327
**Azamat Umirzokov**

MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI ................................ 334
**Ismailov Nurulla Tuychibayevich**

O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI ......... 339
**Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich**

IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLISH USULI ........................ 343
**Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna**

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI ................................ 347
**Axmedov Farxod Raxmonjonovich**

IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS ................................ 354
**Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi**

KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA ................................ 362
**Ilyasova Barno Axmadovna**

MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI ................................ 371
**G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li**

EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ................................ 378
**Raximov Eshmurod Normuradovich**

O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI ................................ 385
**Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi**

SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEXANIZMLARI ................................ 392
**Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li**

TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI ................................ 398
**Bozorova Farida Maxmudjonovna**

НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ................................ 405
**Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович**

OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR ................................ 410
**Talapova Nargiza Baxriddinovna**

INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK ................................ 416
**Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich**

YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI ....... 421
**Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# YANGI O‘ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich**
Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida shakllanayotgan investitsion muhit va unga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish va sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, huquqiy bazaning takomillashtirilishi, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengaytirilishi, soliqqa tortish tizimining soddalashtirilishi, erkin iqtisodiy zonalar va innovatsion texnoparklarning tashkil etilishi investitsion jozibadorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: investitsion muhit, xorijiy investitsiyalar, islohotlar, iqtisodiy erkinlik, soliq siyosati, erkin iqtisodiy zonalar, tashqi savdo, investorlar, huquqiy asos, infrastruktura, davlat-xususiy sheriklik, sarmoyaviy jozibadorlik.

Abstract. The article analyzes the investment climate being formed in the context of New Uzbekistan and the main factors influencing it. In recent years, fundamental reforms have been carried out in Uzbekistan to attract investments and create favorable conditions for investors. In particular, the improvement of the legal framework, the expansion of public-private partnership mechanisms, the simplification of the taxation system, the creation of free economic zones and innovative technoparks have a positive impact on investment attractiveness.

Keywords: investment climate, foreign investments, reforms, economic freedom, tax policy, free economic zones, foreign trade, investors, legal framework, infrastructure, public-private partnership, investment attractiveness.

Аннотация. В статье анализируется формирующийся инвестиционный климат в условиях нового Узбекистана и основные факторы, влияющие на него. В последние годы в Узбекистане проводятся кардинальные реформы, направленные на привлечение инвестиций и создание благоприятных условий для инвесторов. В частности, совершенствование правовой базы, расширение механизмов государственно-частного партнерства, упрощение системы налогообложения, создание свободных экономических зон и инновационных технопарков оказывают положительное влияние на инвестиционную привлекательность.

Ключевые слова: инвестиционный климат, иностранные инвестиции, реформы, экономическая свобода, налоговая политика, свободные экономические зоны, внешняя торговля, инвесторы, правовая база, инфраструктура, государственно-частное партнерство, инвестиционная привлекательность.

## KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va xalq farovonligini oshirishda investitsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Investitsiya – bu nafaqat iqtisodiy o‘sish omili, balki innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish vositasi hamdir. Shu bois, har bir davlat o‘z hududida qulay investitsion muhitni shakllantirishga intiladi. O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillikning yangi bosqichida – “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida iqtisodiyotni tubdan isloh qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish va xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish bo‘yicha qator strategik chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

So‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida O‘zbekiston investitsiya muhiti borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Xususan, qonunchilik bazasi takomillashtirildi, investorlar uchun huquqiy kafolatlar mustahkamlandi, soddalashtirilgan ruxsatnomalar tizimi joriy etildi, soliq va bojxona siyosatida yengilliklar yaratildi. Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va innovatsion markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatning ochiqligi, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikka tayyorligi esa investorlar ishonchini orttirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlardan, B. Mamatov, “investitsiyaviy jozibadorlik mamlakat, tarmoq yoki alohida olingan korxona investitsiya-larining daromadlilik, rivojlanish istiqbollari va investitsiya xatari-ning darajasi nuqtai nazaridan baholanishi” deb, qaraganligi e’tiborga molikdir. Olim tomonidan jozibadorlik aynan investitsiya salohiyati va investitsiya xatari darajasini shakllantiradigan ikki guruh omillarining bir davriylikda ta’sir etishi orqali aniqlanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur ko‘rsatkichlarni baholashda investitsiyalarning maqsadga muvofiq-

ligi va jozibadorligi hamda risk darajasini aniqlash tavsiya etilgan. Fikrimizcha, investitsiyaviy jozibadorlikni to‘g‘ri va puxta baholash mamlakat iqtisodiyotiga sarmoya jalb qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

N.Rajabovning fikricha, “investitsion jozibadorlik qiymatini unga ta’sir ko‘rsatadigan omillar, mavjud risklarni inobatga olgan holda hisoblashda bir qator uslublar ishlab shiqildi. Ushbu uslubiy modellar va keltirilayotgan formulalar muqaddam qilingan tadqiqot ishlari va turli davrlarda olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlarni tahlil qilish va o‘rganish mahsuli bo‘lib, qaysidir ma’noda ular tomonidan qo‘llanilgan hisob-kitoblarning modifikasiyalangan varianti hisoblanadi”. Fikrimizcha, investitsion jozibadorlikni puxta va ilmiy asosda baholash investitsiyalarni samarali boshqarish hamda iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

A. Xolmirzayev fikricha, investitsiya muhiti bu mamlakatda sarmoya kiritish jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ijtimoiy sharoitlarning majmuasi bo‘lib, u investorlarning qaror qabul qilishiga, sarmoyalarni samarali taqsimlashiga va uzoq muddatli barqarorlikka ta’sir qiladi. Investitsiya muhiti kuchli bo‘lsa, mamlakatga ichki va xorijiy kapital oqimi ortadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi hamda iqtisodiy o‘sish tezlashadi. Shu bois, uning shakllanishi va takomillashtirilishi davlat siyosatining muhim vazifalaridan biridir. Fikrimizcha, samarali investitsiya muhiti mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va uzoq muddatli barqaror o‘sishga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

G.Tursunov fikricha, investitsiya muhiti investorlarning sarmoya kiritish faoliyatiga ta’sir qiluvchi makro va mikroiqtisodiy omillar tizimi bo‘lib, unga iqtisodiy barqarorlik, valyuta siyosati, soliq rejimlari, moliyaviy bozorlarning rivojlanishi, huquqiy kafolatlar va siyosiy shaffoflik kiradi. Firmalarning ichki imkoniyatlari va infratuzilma holati ham investitsiya muhitini belgilovchi asosiy omillardir. Bu omillar investorlarning ishonchini shakllantirib, sarmoya oqimini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, investitsiya muhitini rivojlantirish uchun ushbu omillarni kompleks tarzda boshqarish va yaxshilash lozim. Bu davlat siyosati, iqtisodiy strategiyalar va qonunchilikni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi.

N. Ergashev investitsiya muhiti iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim omil bo‘lib, u qonunlar, siyosat va infratuzilmaning uyg‘unligini anglatadi. Bu muhitda davlat tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy va siyosiy strategiyalar, qonunchilik bazasi, shuningdek, transport, aloqa va energetika infratuzilmasi o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. Bu omillar investorlar uchun xavfsiz va qulay sharoit yaratadi, shu bilan birga investitsiya faoliyatining samaradorligini oshiradi. Fikrimizcha, investitsiya muhiti barqaror bo‘lsa, u iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga mustahkam poydevor yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyoti ko‘p jihatdan investitsiyalar hajmi va sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Investitsiyalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, qulay investitsion muhitni shakllantirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Investitsion muhit bu investorlar faoliyatining samaradorligi va xavfsizligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy hamda tashkiliy shart-sharoitlar yig‘indisidir. Ushbu muhitning holati nafaqat ichki, balki xorijiy investorlarning mamlakatga bo‘lgan qiziqishini ham belgilaydi. Shuning uchun investitsion muhitni chuqur tahlil qilish, unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish hozirgi davrda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasidagi investitsion muhitga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda 2 guruhga ya’ni, tashqi va ichki omillarga ajratishimiz mumkin (1-rasm).

Investitsiya muhitiga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillardan eng muhimi sifatida mamlakatdagi makroiqtisodiy barqarorlikni keltirib o‘tish lozim. Sababi, ushbu omil o‘zida mamlakatdagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan YaIM, uning aholi jon boshiga nisbatan taqsimoti, inflyatsiya darajasi, YaIM deflyatori, davlat budjetining ijrosi, sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, investitsiyalarni jalb etish va boshqa ko‘pgina ko‘rsatkichlarni o‘zida aks ettiradi. Aynan ushbu omillar jahonning ko‘plab reyting agentliklari va xalqaro reyting natijalari uchun asos hisoblanadi. Ichki omillar guruhidan joy olgan soliq, bojxona va boshqa ma’muriy imtiyozlarning amal qilishi erkin iqtisodiy hududlar uchun ahamiyatlidir. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasidan ma’lumki, ushbu guruh imtiyozlarini samarali amal qilishi xorijiy investorlar tomonidan manfaatli takliflarning qanoatlantirilishining kafolatlaridan biridir.




1-rasm. Investitsiya muhitiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

O'zbekiston misolida olib qaralganda, so'nggi yillarda investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Biroq, hali ham hal etilishi lozim bo'lgan tizimli muammolar mavjud. Shu bois, investitsiyaviy muhitni kompleks ravishda takomillashtirish orqali xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun yanada jozibador iqtisodiy makon yaratish mumkin.

2-rasm ma'lumotlarini e'tirof etish joizki, dunyodagi top 10 ta davlat Global raqobatbardoshlik indeksidagi o'rni tahlil qilib chiqamiz. Daniya -1, Irlandiya -2, Shvetsariya -3, Singapur -4, Niderlandiya -5, Tayvan -6, Xitoy -7, Shvetsiya -8, AQSh -9 va BAA -10 o'rinlarni egallaganligini ko'rishimiz mumkin.

Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI), milliy raqobatbardoshlikning mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy asoslarini qamrab oluvchi juda keng qamrovli indeks hisoblanadi. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) Global raqobatbardoshlik indeksi (GCI) iqtisodiy salohiyatni, shuningdek, davlatning fuqarolar uchun ma'lum turmush darajasini ta'minlash qobiliyatini baholaydi. Ko'rsatkich, o'z navbatida, davlat tomonidan mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi darajasini ko'rsatadi (2-rasm).




2-rasm. 2024 yilda Dunyodagi top 10 ta davlat Global raqobatbardoshlik indeksidagi o'rni (Global Competitiveness Index)

Quyidagi 2-rasm ma'lumotlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, dunyodagi top 10 ta davlat Global innovatsiyalar indeksidagi o'rni bo'yicha, Shveytsariya-1, Shvetsiya-2, AQSH-3, Angliya-4, Singapur-5, Finlandiya-6, Niderlandiya-7, Germaniya-8, Daniya-9, Koreya-10, Fransiya-11, Xitoy-12, Yaponiya-13 o'rinlarni egalaganligini ko'rishimiz mumkin. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turubdiki, investorlar qaysi mamlakat Global raqobatbardoshlik indeksiga (Global Competitiveness Index) a'zo bo'lib yaxshi natijalarni qayd etgan davlatga xorijiy investitsiya jalb qilish hajmi ham shunda yuqori bo'ladi (3-rasm).




3-rasm. 2024 yilda Dunyodagi top 10 ta davlat Global innovatsiyalar indeksidagi o'rni (Global Innovation Index)

Qozog'istonning innovatsiyalar indeksidagi o'rni nisbatan barqaror va yuqori bo'lib, 2020–2024 yillar oralig'ida eng yuqori pozitsiyada qolgan davlat hisoblanadi. 2022 yilda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da (83-o'rin), 2024 yilda yana yaxshilanishga erishilgan (78-o'rin). Bu holat Qozog'iston innovatsion rivojlanish sohasida doimiy ishlayotganini ko'rsatadi (4-rasm).




4-rasm. Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekiston davlatlarning Global innovatsiyalar indeksidagi o'rni (Global Innovation Index)

Tojikistonning pozitsiyasi eng past bo'lib, xalqaro darajada innovatsion rivojlanish bo'yicha ortda qolmoqda. 2021-yilda biroz yaxshilanish (103-o'rin) kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda pasayish kuzatilgan. Bu innovatsiyalarga yetarli e'tibor berilmayotgani yoki mavjud tizimlar samarali ishlamayotganini anglatadi.

O'zbekiston so'nggi besh yillikda ijobiy dinamikani saqlab kelmoqda. 2020-yildan boshlab 2022-yilgacha aniq yaxshilanish kuzatilgan. 2023–2024 yillarda esa pozitsiya deyarli barqaror saqlangan (82–83-o'rin). Bu O'zbekistonning innovatsiyalar sohasida bosqichma-bosqich rivojlanayotganini va barqaror islohotlar olib borilayotganini ko'rsatadi.

Qozog'iston Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori innovatsion reytingga ega bo'lib, barqaror va yuqori pozitsiyada qolmoqda. O'zbekiston barqaror o'sish ko'rsatayotgan davlat, yaqin yillarda Qozog'istonga yaqinlashish imkoniyatiga ega. Tojikiston orqada qolgan davlat, innovatsion sohada kuchli tizimli o'zgarishlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Mamlakat hududiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish nuqtai nazaridan investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda xalqaro reyting va indekslarning ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega (5-rasm).




5-rasm. Investitsiyaviy jozibadorlikni baholashda xalqaro reyting va indekslar

Ushbu xalqaro reyting va indekslar natijalari xalqaro darajada mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini ma’lum darajada ko‘rsatib beradi va hududga xorijiy investitsiyalar oqimini faollashtiradi. Aksariyat salohiyatli chet el investorlari mamlakat yoki uning hududlariga investitsiya kiritishlarida mazkur reyting va indekslarning natijalariga qarab ham investitsion qarorlar qabul qilishadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatning xalqaro reyting va indekslarda o‘rni tobora yaxshilanib borishi mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda hududlarda investitsiyaviy faollikni ta’minlash imkonini yaratadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O‘zbekiston sharoitida investitsion muhitni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, raqobatbardoshligini oshirish va xalq farovonligini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, soddalashtirilgan tartib-taomillar, soliqqa tortish tizimining takomillashuvi va investorlarga yaratilayotgan kafolatlar investitsion jozibadorlikni sezilarli darajada oshirmoqda. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi, raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi, erkin iqtisodiy zonalar va texnoparklar faoliyatining faollashuvi ham O‘zbekistonning investitsion muhitiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ayrim muammolar byurokratik to‘siqlar, mahalliy hokimiyatlar darajasida layoqat yetishmasligi, infratuzilma muammolari va sarmoyadorlarning huquqlarini amalda himoya qilishda davom etayotgan muammolar haligacha dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Investitsion muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillar sifatida siyosiy barqarorlik, ochiq tashqi siyosat, xalqaro tashkilotlar bilan faol hamkorlik, iqtisodiy erkinlik va barqaror qonunchilik tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi islohotlarni chuqurlashtirish, sarmoyadorlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilish orqali O‘zbekiston mintaqadagi yetakchi investitsiya markazlaridan biriga aylanishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rajabov N. Investitsion muhit jozibadorligini baholashning ilmiy-uslubiy jihatlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020 yil.
2. Mamatov B. Qulay investitsiya muhiti – iqtisodiyot taraqqiyotining garovi. https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-economy-uz/1391-ulaj-investitsiya-mu-iti-i-tisodijot-tara-ijotining-garovi
3. Xolmirzaev, A. (2018). Investitsiya muhiti va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi nashri, 45-bet.
4. Tursunov, G. (2019). Makro va mikroiqtisodiy omillar investitsiya muhitida. Toshkent: Ilmiy jurnali, 72-bet.
5. Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. Monografiya. – T.: «Ma’naviyat», 2021. –352 b.
6. Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2014. – 608 b.
7. E.I. Nasirov, Sh.Sh. Asamxodjayeva. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish: Darslik/T.: 2020. – 424 b.

**muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 10**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07
https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal
t.me/yait_2100